



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2023-yil.
2-son.

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Tahrir hay'ati:

Baxtiyor SAIDOV
Dilshod KENJAYEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Yorqinjon ODILOV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANIYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
To'liqin SAYDALIYEV
Ravshan JOMONOV
Zulxumor MIRZAYEVA
Qozoqboy YO'LDOSHEV
Tajixon SABITOVA
Salima JUMAYEVA
Nilufar NAMOZOVA
Qayum BAYMIROV
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinsbosari)

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Yuliya MUSURMANOVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
web-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi"dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin. Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga. 2023.25.02. da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84/8. Shartli bosma tabog'i 6.0. «Arial» garnituras. 10, 11 kegl. «ECO TEXTILE PRODUCT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Buyurtma Adadi 2670 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

MUNDARIJA

Maksuda OBIDOVA. Buyuk xalqning azaliy beshigi	2
ALISHER NAVOIY TAVALLUDIGA 582 YIL	
Sadoqat MAMAJONOVA. Navoiy dahosini anglash	3
DOLZARB MAVZU	
Userbay BAYKABILOV. Xalqaro baholash dasturlarining ahamiyati	4
DARS - MUQADDAS	
Adiba BEKCHANOVA. So'z mulkining sultoni	6
Lobar MAMBETOVA. Ko'chirma gapli qo'shma gaplar	8
METODIK TAVSIYA	
Husniddin NORQULOV. O'smirlar tarbiyasida oila va maktab integratsiyasi	10
Gulbahor RAHIMOVA, Saodat KIYAMOVA. She'riy audiomatn namunalari innovatsion o'rgatish usullari	12
Muborak JO'RAYEVA. Nofilogik oliy o'quv yurtlari chet til ta'limida ommaviy axborot vositalari materiallaridan samarali foydalanish	14
Nazokat JIYANOVA. Mavzu tahlilida innovatsion ta'lim metodlarining o'rni	16
Elmirza ERKAYEV. Chet tilni amaliy o'rganishda mustaqil yondashuv	18
Shokhida MATYOKUBOVA. The role of authentic texts in the development of reading skills in non-philological field of study	19
TADGIQOT	
Dilmurod ESHANQULOV. Dunyo tilshunosligida o'quv lug'ati termini	22
Xurshida NARXODJAYEVA. O'zbek rasmiy muloqot odobi va uning o'ziga xos xususiyatlari	24
Dilshoda MAMATOVA. Xitoy tilida "mazali" sifatining sinonimlari va qo'llanilishi	26
G'ulomjon ATADJANOV. Badiiy tarjimada ichki monologning qayta berilishi	28
Ilhom KAZAKOV. Realialarda milliy madaniyat belgisi	29
Nozimaxon MAMADJANOVA. Fonetik interferensiya hodisasining "Guess What!" ingliz tili darsliklarida yoritilishi	32
TARJIMASHUNOSLIK	
Lazizjon RAIMOV. Use of terms related to construction	35
TAHLIL	
Xolida BOZOROVA. Zamonaviy o'zbek she'riyatida hadis talqini	37
Muqaddas TO'RABOYEVA. Ona tili ta'limidagi mashq turlari	38
Nargiza XODJAKULOVA. Talabalarining mustaqil tuzgan hikoyalari orqali tanqidiy tinglab tushunish ko'nikmasini shakllantirish	40
Firuz SAFAROV. Mustaqillik davrida o'zbek adabiy tilining qo'llanish doirasi	42
Rayxona TILLAYEVA. Tadqiqotchilik kompetensiyasi va uning o'ziga xos jihatlari	44
Dilafroz SARIMSAKOVA. Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarining ingliz tilida sotsiologik kompetensiyasini rivojlantirish modeli	45
Nargizaxon VALIEVA. Linguocultural aspect of teaching foreign languages as an integral part of the educational process	47
METODIKA. OPIY	
Zamira HURMANOVA. Рождественская новелла О.Генри «Дары волхвов»	49
Лейло ХАМДАМ-ЗОДА. Интерактивные методы обучения при изучении фразеологизмов русского языка	52
Нуржамал САПАРОВА. Времена года. Зима. Имя прилагательное.	54
ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ	
Инобат ТУРСУНОВА, Шохида БАЗАРОВА. Некоторые виды работ по обучению студентов узбекских групп со слабой языковой подготовкой употреблению в речи возвратных глаголов	56
Феруза МАМАДАЛИЕВА. Профессиональный подход при обучении русскому языку в нефилологических вузах	57
ЯЗЫКОЗНАНИЕ	
Сабохат Курбанова. Особенности употребления устаревшей лексики в рассказе И.А.Бунина «Забора»	59
ЛЕКСИЧЕСКИЙ МАТЕРИАЛ	
Рамина ЯГФАРОВА. Язык СМИ в информационной картине мира	61
Майя ТУРСУНОВА. Лексико-семантическое освоение англицизмов в русском языке	63
ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ	
Николай ИЛЬИН. Романтическая поэзия Усмана Насыра	65
НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ	
Зулхумор ДЖУРАЕВА. Гендерные парадигмы в русской паремологии	68
Наргизахон ВАЛИЕВА, Зафар АБДУСАМADOV. Лингвокультурологическое исследование антропонимов в полисистемных языках	71
ФОРМЫ ОБУЧЕНИЯ	
Гульчебра ДАВЛЯТОВА, Гульсанам ЮЛДАШЕВА. Современные методы и приемы словарной работы на материале риторических текстов	74
МЕЖКУЛЬТУРНЫЕ КОММУНИКАЦИИ	
Элина АБДУЛЛАЕВА. Русский язык как средство межкультурной коммуникации на современном этапе	76
Эльвира МИНИБАЕВА. Живая русская речь в условиях языкового контактирования	77
МЫСЛИ ВСЛУХ	
Шавкат НИШАНОВ. Обучение педагогов новым методикам в процессе модульного обучения	79
Литературный календарь 2023 года	80

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

Я ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

jurnali

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining
Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

MUSTAQILLIK DAVRIDA O'ZBEK ADABIY TILINING QO'LLANISH DOIRASI

Rus tilshunosi A. V. Isachenko har qanday adabiy tilning zaruriy belgilari 1) polivalentlik ya'ni millat hayotining barcha sohasiga xizmat qilish, 2) me'yoriylik, 3) jamoaning barcha a'zosi uchun umummajburiylik va shu bilan bog'liq ravishda sheva variantlariga yo'l qo'yilmasligi, 4) uslubiy tarmoqlanganlik deb hisoblaydi [1, 149 – 158]. Ma'lumki sho'ro davrida ijtimoiy hayotning ko'pgina sohasida rus tili hukmron bo'lib o'zbek tilining qo'llanish doirasi (polivalentligi, ijtimoiy vazifasi) cheklanib qolgan edi. Mustaqillik sharofati bilan tilimizga siyosiy va huquqiy erk berildi. Biroq istiqoldan keyin ham o'zbek tili ijtimoiy hayotning barcha sohasida birdek qo'llanmayapti. Bu maqolada ana shu hodisa va uning sabablari haqida so'z yuritiladi.

Nazariyotchi tilshunos M. M. Guxman milliy adabiy tilning qo'llanish doirasi (ijtimoiy vazifasi) haqida shunday deb yozgan edi: Rivojlangan milliy tillar vujudga kelgan davrda adabiy tilning bu turi asta-sekin tilning boshqa mavjudlik shakllarini siqib chiqaradi, ularning ijtimoiy ahamiyatini pasaytiradi va umummilliy normaning ifodachisi, milliy til mavjudligining oliy shakliga, lisoniy aloqaning universal vositasiga aylanadi [2, 532]. Shu munosabat bilan savol tug'iladi. Xo'sh, davlat tili haqidagi qonun qabul qilinib istiqolga erishganimizdan keyin o'zbek adabiy tilining ijtimoiy vazifasi (polivalentligi) to'liq shakllandimi? O'zbek milliy adabiy tili lisoniy aloqaning universal vositasiga aylandimi? Afsuski bu savolga ha deb javob bera olmaymiz. Chunki o'zbek adabiy tilining istiqoldan keyingi ahvolini kuzatsak "Davlat tili haqida"gi qonun talablarining ko'p holda bajarilmayotgani, davlat tilining amaliyotga keng joriy qilinmayotgani [3, 16], jonajon poytaxtimiz ko'chalari ajnabiy yozuvlarga to'lib ketayotgani, shahar maktablari imi-jimida ruslashtirilayotgani, qonunlarimiz hali ham boshqa tilda ijod qilinayotganligi [4, 8]ga guvoh bo'lamiz. Shuning uchun ham O'zbekiston Prezidenti SH. M. Mirziyoyev o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida "Yana bir muhim vazifa fundamental tadqiqotlar, zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, sanoat, bank-moliya tizimi, yurisprudentsiya, diplomatiya, harbiy ish, tibbiyot va boshqa tarmoqlarda davlat tilini to'laqonli qo'llash bilan bog'liq" degan edi [5].

O'zbek adabiy tilining ijtimoiy vazifasini to'liq bajarishi davlat (aniqrog'i davlatning til siyosati)ga, jamiyat (xalq) va shaxsning ruhiyatiga bog'liq.

Shuni ta'kidlash joizki til haqidagi qonun qabul qilinib (1989), keyinchalik uning tahrir etilishi (1995) bilan davlat bu boradagi o'z vazifasini bajardi. O'zbek adabiy tiliga siyosiy va huquqiy erk berildi. Binobarin mamlakatda o'zbek adabiy tilining ijtimoiy vazifasini cheklaydigan siyosiy va huquqiy kuch yo'q. Mazkur qonunning amal qilishi aniqrog'i adabiy til ijtimoiy vazifasini to'la bajarishi uchun esa «xalqimiz ruhan ham uyg'oq bo'lmog'i darkor. Ruh bedorligiga uning rahbar-rahnamolari, olimu ziyolilari, barcha farzandlari mas'uldir» (I. Karimov. Tafakkur jurnali, 1997, 2-son, 12) [6, 52].

Binobarin malomatli maraz bo'lgan mustamlakachilik asoratini mahv etish yo'llarini ko'rsatish ham tilshunos, ham adabiyotshunosning birlamchi vazifasi bo'lmog'i darkor. SHu munosabat bilan milliy ruh masalasi dolzarb muammo-ga aylanadi. Negaki milliy ruh uyg'oq bo'lib yuqori darajada

zuhur etgan taqdirdagina polivalentlik to'la shakllanadi, aks holda adabiy tilimiz ijtimoiy hayotning hamma sohasida barcha tomonidan qo'llanadigan bo'lishi uchun uzoq vaqt talab etiladi [6, 52].

Sotsialistik tuzumda kommunistik mafkura, ateistik dunyo-qarash yakka-hokim bo'lganidan ruhiyat masalalari e'tibordan chetda qoldi [6, 52].

Ma'lumki, milliy ruh uzvli tushuncha bo'lib milliy ong (aql, tafakkur) va milliy tuyg'u (idrok)dan tuzilgan. Milliy adabiy tilning ahvoli ana shu ma'nodagi milliy ruhga bog'liq bo'ladi. Afsuski hozircha barcha ijtimoiy guruh (jamo) va tabaqada shunday ruh ustuvor deya olmaymiz [6, 52].

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Kamol Matyoqubovning so'zlari ham bu fikrni tasdiqlaydi: Umuman olganda, "Davlat tili haqida"gi qonunga, farmonga bunday e'tiborsizliklarning, sohada yuz berayotgan yuqoridagidek kamchiliklarning asl sababi nimada, degan savol tug'iladi. Sababi oddiy. Aksariyatimizning qalbimizda davlat tiliga, ya'ni o'zbek tiliga, garchi, bu tilni nihoyatda sevamiz, deb to'tiqushdek ming martalab takrorlasak ham, mehr-muhabbat yo'q, undan chinakamiga faxrlanish, iftixor qilish, g'ururlanish tuyg'ulari yo'q [7, 2019]. Shu bois adabiy tilimiz ijtimoiy vazifasini to'la bajarmayapti.

Harbiy soha, sport, fan-texnika, tibbiyot, ish yuritishga adabiy tilning kirib kelishi qiyin kechmoqda.

Masalan tibbiyotda ilmiy tadqiqotni qo'yib turayligu oddiy resept yozish yoki kasallik varaqasini to'ldirish hozirgi kunda ham asosan rus tilida bo'lyapti. Buning sababi yoshi kattaroq shifokorlar sho'ro farzandi bo'lib rus tilida o'qiganligidan ruscha fikrlashdan qutula olmayotgan bo'lsa hozir bitirayotganlarga ham shunday professor-o'qituvchilar dars berayotganligidir [6, 52].

Davlat boshqaruvi organlarida rus tili "katta obro'"ga ega bo'lsa-da, oxirgi yillarda hujjatlarni o'zbek tilida yuritish o'sib bormoqda. Ba'zi siyosatchilar hamma hujjatni o'zbek tiliga o'tkazishga chaqirmoqda. Ammo shu narsa ayonki, markaziy ijroiya qo'mitalari va respublika parlamenti rus tilida faol sur'atda hujjat yuritayotgan ekan, bu sohada siljish bo'lishi qiyin masala. Viloyatlarda "quyi" ma'muriy idoralar o'zbek tilidan foydalanadi. Ammo "yuqori"ga jiddiy biror "hisobot" yuboriladigan bo'lsa albatta rus tiliga murojaat qiladi [8]. Bu sohada yana bir muammo – hamon ayrim davlat tashkilotlaridan xatlar va boshqa hujjatlar boshqa tillarda chiqarilayotgani, shartnomalar, tender materiallari, klassifikatorlar va hokazo muhim hujjatlarning davlat tilidagi variantlari mavjud emasligi, davlat tashkilotlari o'tkazayotgan tadbirlarning rus tilida olib borilishi, xalqaro tadbirlar, xususan, seminarlar, treninglarda sinxron tarjimalar davlat tilida qilinmayotganining guvohi bo'lib turibmiz [9].

O'zbekiston Fanlar akademiyasining aniq va tabiiy fanlar institutlari tomonidan chiqariladigan jurnallardagi maqolalar aksariyat holda rus tilida yozilyapti. Fikrimizni dalillash uchun bu jurnallarning ayrimini tahlil qilamiz. O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti tomonidan nashr etiladigan O'zbekiston kimyo jurnalining 2018-yilgi sonlarida jami 75 ta maqola chop etilgan. Shunda bor-yo'g'i 3 tasi o'zbek tilida, qolgan rus tilida. O'zbekiston biologiya jurnalining 2020-yilgi

sonlarida jami 67 ta maqola chop etilgan. Shundan 59 tasi rus tilida, 8 tasi ingliz tilida. O'zbek tilida birorta ham maqola yo'q. O'zbekiston fizika jurnali haqida internetga kiritilgan ma'lumotda nashr tili rus, ingliz tili deb yozib qo'yilgan.

Sport va harbiy sohada ruscha fikrlaydigan rahbar-u xodim ko'p [Zikrillayev, 6, 52].

Geografik obyektlar, xizmat ko'rsatish va savdo binolariga nom berishda ham to'liq o'zbek tilidan foydalanilmayapti. Keyingi paytlarda ko'chalar, maydonlar, xiyobonlar, binolar, do'konlar, xususiy muassasalar nomlarini yozishda nafaqat davlat tili haqidagi qonunga amal qilinmayapti balki ularni xorijiy tillarda bitish nihoyatda avj olib bormoqda. So'zimiz isbotsiz bo'lmasligi uchun Toshkent shahrining xohlagan ko'chasidagi yozuvlarga – xususiy korxonalar, bannerlarga bir nazar tashlang. Har qadamda "Beanty salon", "La Perla Cosmetics", "Golden River", "Dark hall", "Elegant", "Creative Master". "Viva", "Savio", "Star Med Center", "Avisa Med Servis", "Salus Vita" larga duch kelasiz. "Mini market", "Pich market"larning esa son-sanog'i yo'q. Shular qatorida aksariyat binolarning peshtoqlari "Дверь", "Центр обуви", "Учебный центр", "Подготовка абитуриентов", "Языковые курсы", "Дошкольное обучение", "Зеленый базар", "Срочное фото", "Цветная печать" kabi rus tilidagi nomlar bilan bezalgan. Oshxonalar nomi yonidagi "milliy taomlar" "multi taomlar"ga, palov degan nom "plov"ga aylangan. Yurtimizning "O'zbekiston" deb atalgan go'zal nomi esa "Uzbekistan"ga aylanib ulguribdi. Endilikda ingliz, rus tilidagi nomlar yoniga nemis, fransuz, koreys, xitoy va boshqa tillardagi turli-tuman atamalar ham kelib qo'shilmog'da. Xullas, poytaxtning xohlagan ko'chasiga kirsangiz, 80-85 foiz xorijiy tillardagi, 15-20 foiz o'zbek tilidagi nomlarga, atamalarga, shiorlarga duch kelasiz. O'zingizni Toshkent shahri ko'chalarida emas, London, Moskva shaharlari ko'chalarida yurgandek his qilassiz. Go'yo yurtimizda o'zbek tili emas, boshqa tillar davlat tiliga aylangandek taassurot tug'iladi [7, 2019].

Yuqoridagi kabi holatlarga yana ko'plab misol keltirish mumkin. Biroq shularning o'ziyoq o'zbek adabiy tili ijtimoiy vazifasini to'la bajarmayotganidan dalolat beradi.

O'zbek adabiy tilining ijtimoiy vazifasi haqida so'z yuritayotgan ekanmiz, bu bilan bog'liq yana bir muhim masalaga to'xtalib o'tishimiz lozim. Bu o'zbek tilining internet tizimida qo'llanishi aniqrog'i internet tiliga aylanishi masalasidir. "Globallashuv asrida tillarning yashab qolishi ko'proq axborot-kommunikatsiya sohasida, internet tizimida qo'llanish darajasi bilan bog'liq. Qaysi til internet tili emas ekan,

bu tillarning ro'parasida o'lim xavfi turaveradi" [10]. "Masalan Yevropadagi Islandiya davlatining tili bo'lgan island tili o'lik tilga aylanayotgani barcha millatparvar kishilarni hushyor tortirishi tabiiy. Mutaxassislar fikricha, Islandiyada internet tili ingliz tili bo'lgani uchun island tilining qo'llanish doirasi tobora tobora torayib bormoqda. Internet kompyuter texnologiyalariga tayanadi. Kompyuter lingvistikasida "kompyuterning tilni tanishi" degan tushuncha bor. Agar kompyuter tilni tanir ekan, tilning kompyuter tili, internet tili ekanligi haqida so'z yuritish to'g'ri bo'ladi. Kompyuter tilni "tanishi" uchun u bu tilni "bilishi" zarur. Kompyuterning matndagi xatolarni tuzatishi, matnni qayta ishlashi, annotatsiyalashi, tilni o'rgatishi, transliteratsiya qilishi, til ifodalarini tasniflashi, tartiblashi, biror tilda gapirishi, yozishi asosida uning tilni tanishi asosida amalga oshiriladi" [10]. "Tilning internet, kompyuter texnologiyalari tiliga aylanishi matematik lingvistika, uning davomi bo'lgan kompyuter lingvistikasining shakllangani va rivojlanish darajasi bilan bog'liq. Ayniqsa, sun'iy intellekt uchun tabiiy tillarni model-lashtirish kompyuter lingvistikasining asosiy, pirovard vazifasi hisoblanadi. Dunyo miqyosida sun'iy intellektlar yaratish asosida tabiiy tillarni matematik modellash-tirish yotadi. Matematik modellash-tirish natijalari sun'iy intellektning faoliyat dasturini yaratishga asos bo'lib xizmat qiladi. Bu esa o'zbek tili misolida hali ochilmagan qo'riq" [10]. Aytilganlardan ko'rinadiki o'zbek tilini kompyuter, internet tiliga aylantirish ham o'zbek adabiy tilining ijtimoiy vazifasini kengaytirish uchun zarur bo'lgan muhim vazifalardan biridir.

Tilshunoslik, adabiyotshunoslik, adabiyot, matbuot, radio, televideniye, o'rta va oliy maktabda o'zbek tili ustuvor. Bu sohalarda o'zbek adabiy tili ijtimoiy vazifasini bajaryapti deyish mumkin. Lekin adabiy tilning boshqa belgilariga (me'yoriylik, umummajburiylik, uslubiylikka) to'la rioya qilyapti deya olmaymiz. Binobarin adabiy tilimizning madaniyati (nutq madaniyati)ni yuqori deb bo'lmaydi [6, 53].

Xulosa sifatida aytish mumkinki o'zbek adabiy tili ijtimoiy vazifasini to'la bajarishi uchun xalqimizning barcha vakilida milliy ruhni uyg'otish, shu asosda "ona tilimizning qo'llanish doirasini yanada kengaytirish, ayniqsa, uning ishlab chiqarish, fundamental fan, tibbiyot, harbiy ish, yurisprudentsiya, axborot texnologiyalari va boshqa yo'nalishlarda faol istifoda etilishini ta'minlash" [11, 11] zarur. Bu davlat va hukumat rahbarlari, tilshunos, adabiyotshunos va boshqa soha olimlari, shoir, yozuvchi, til muallimi oldida turgan dolzarb vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Исаченко А. В. К вопросу о периодизации истории русского языка. Вопросы теории и истории языка (сборник в честь проф. Б. А. Ларина). Ленинград, 1963, с. 149 – 158.
2. Гухман М. М. Литературный язык // Общее языкознание. Формы существования, функции, история языка. Москва, "Наука", 1970, 604 с.
3. Одилов Ё. Тил ва жамият таъсирлашуви. Ўзбек тили ва адабиёти журнали, 2020, 4-сон. 10 – 17-б.
4. Абдидат деворидаги битик. Ўзбекистонда хизмат кўрсатган мураббий, шоир Мирзо Кенжабек билан суҳбат // Тафаккур журнали, 2020, 4-сон. 4 – 15-б.
5. Президент Шавкат Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. <https://uz.uz/uz/posts/prezident-shavkat-mirziyeevning-uzbek-tiliga-davlat-tili-ma-o-21-10-2019>.
6. Зикриллаев Ғ. Рух ва тил. Тошкент, Фан, 2018.
7. К. Матёкубов. Миллат кўзгусига ғубор туширмайлик. <http://www.adolatgt.uz/society/5737>.
8. Нима учун ўзбек тили фан ва сиёсат тили бўла олмади. <https://zamin.uz/uz/uzbekiston/50047-nima-uchun-uzbek-tili-fan-va-siyosat-tili-bola-olmadi.html>
9. Shahnova Soatova. Ona tilimiz sofliги va boqiyliğini saqlashga har birimiz mas'ulmiz. <https://yuz.uz/uz/news/ona-tilimizning-sofliги-va-boqiyliğini-taminlashga-har-birimiz-masulmiz>.
10. Til nega o'ladi? Global tanazzuldan omon qolish mumkinmi? – Professor bilan suhbat. <https://m.kun.uz/uz/news/2019/10/20/til-nega-oladi-global-tanazzuldan-omon-qolish-mumkinmi-professor-bilan-suhbat>.
11. Сирожиддинов Ш. Ўзбек тили ва адабиёти бўйича малакали мутахассисларни тайёрлашнинг янги тамойиллари. Ўзбек тили ва адабиёти журнали. 2016, 4-сон, 8 – 16-б.